

 ZARUR AMALIYOTLAR MARKAZI	“Zarur amaliyotlar markazi” davlat muassasasi	
	SIFAT SOHASIDAGI SIYOSAT	
	Hujjat kodi: STH/1-01	Hujjat nashri: 02



TASDIQLAYMAN
“Zarur amaliyotlar markazi”
Davlat muassasasi direktori v.v.b
B.A.Axmedov
 “15” mart 2026-yil

“ZARUR AMALIYOTLAR MARKAZI” DAVLAT MUASSASASINING SIFAT SOHASIDAGI SIYOSATI

“Zarur amaliyotlar markazi” davlat muassasasining sifat sohasidagi siyosati farmatsevtika faoliyati subyektlarining zarur amaliyotlar (GxP) talablariga muvofiqligini xolisona, malakali va kompleks baholash orqali aholini tibbiyotda qo'llash uchun samarali, xavfsiz va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan.

Markaz sifatni o'z faoliyatining asosi deb hisoblaydi hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, ISO 9001 tamoyillari, amaldagi yondashuvlar, shuningdek, PIC/S va JSST tavsiyalariga asoslangan sifat menejmenti tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Markaz ushbu Siyosatni quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

- subyektlarning zarur amaliyotlar talablariga muvofiqligini baholash ishlarini yuqori darajada tashkil etishga erishish;
- zamonaviy xalqaro yondashuvlar va talablar darajasidagi zarur farmatsevtika amaliyotlarini rivojlantirish hamda joriy etishga ko'maklashish;
- Markaz inspektorlari va boshqa manfaatdor tomonlar faoliyatining ochiqligi, hisobdorligi va shaffofligini ta'minlagan holda ariza beruvchilarning ishonchini mustahkamlash/ iste'molchilarni bilvosita himoya qilish;
- ISO 9001, PIC/S va JSST talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimining samarali ishlashini va doimiy ravishda takomillashtirish borishini ta'minlash.

Ushbu Siyosatni amalga oshirish uchun Markazning yuqori rahbariyati quyidagilarni ta'minlaydi:

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;
- Markaz faoliyatini yetarli resurslar bilan ta'minlash;
- asosiy jarayonlarni raqamlashtirish;
- xodimlarning kasbiy malakasini oshirish;
- idoralararo va xalqaro hamkorlikni samarali qo'llab-quvvatlash;
- sifat menejmenti tizimini doimiy ravishda takomillashtirish.

Markazning yuqori rahbariyati mazkur Siyosatni amalga oshirish, uning dolzarbligini saqlash, Markaz xodimlariga yetkazish, barcha tarkibiy bo'linmalarda qo'llanilishi uchun sharoit yaratish, shuningdek, sifat menejmenti tizimini uzluksiz takomillashtirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.